

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida
korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2023-yilda amalga oshirilgan
ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risida
UMUMIY HISOBOT**

I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturining bajarilishi to‘g‘risida umumiy axborot.

Vazirlikning jami 17 183 ta, jumladan, 33 ta markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, 14 ta hududiy boshqarmalari, 208 ta tuman (shahar) bo‘limlari, 31 ta tizim tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, 16 897 ta maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari hamda vazifa yuklatilgan 234 nafar mas’ul xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy mexanizmlar joriy etilib, aloqa kanallarining ish faoliyati yo‘lga qo‘yildi, vakant lavozimlar bo‘yicha rasmiy veb-saytga e’lon berilib, ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov asosida tashkil etildi. Shuningdek, ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlarni tekshirish va ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish amaliyoti joriy etildi, mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi va xodimlar yozma tartibda imzo qo‘ygan holda tanishtirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xodimlarning deklaratsiya to‘ldirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi, kontragentlarni tekshirish ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish va reestrini yuritish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi, shuningdek davlat dasturlarining ijrosi haqida umumiy hisobot yuritish, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish hamda monitoring va nazorat tadbirlari natijasiga ko‘ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish, reestrini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasidagi 18 ta band, dasturdagi 30 ta band, nazorat rejadagi 26 ta band, kalendar rejadagi 8 ta band va “Yo‘l xarita”dagi 5 ta bandning ijrosi ta’minlandi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2019-2020-yillarga (6 ta band), 2021-2022-yillarga (6 ta band) va 2023-2024-yillarga (5 ta band) mo‘ljallangan Davlat dasturlari bilan yuklatilgan vazifalarning ijrosi ta’minlandi va monitoring hamda nazorat qilinib, hisoboti shakllantirildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar.

Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari hamda tizim tashkilot va muassasalari uchun korrupsiyaga

qarshi kurashish sohasiga oid quyidagi 16 ta ichki lokal hujjatlar ma'muriy islohotlar natijasi bo'yicha yangi tahrirda qabul qilindi, vazirning buyrug'i bilan rasmiylashtirilib, amaliyotga joriy etildi. Jumladan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;
- odob-axloq qoidalari;
- mehnat shartnomalariga kiritiladigan o'zgartirishlarning asosiy shartlari;
- kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladigan asosiy shartlar;
- korrupsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash reglamenti;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti;
- manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;
- xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko'rsatma;
- korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;
- kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma;
- ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma;
- xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglamenti;
- davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom;
- umumiy o'rta ta'lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-axloq qoidalari.

Mazkur ichki lokal hujjatlar vazirlikning rasmiy veb-sayti "Korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi"ga joylashtirilib, 17 183 ta tashkilotga elektron shaklda yetkazildi va ushbu hujjatlar matnlaridagi normalarning mohiyati va ahamiyati barcha darajadagi, xususan 1 mln.150 nafar xodimlarga tushuntirilib, profilaktika tadbirlari o'tkazildi va ular mazkur ichki lokal hujjatlar bilan imzo chekkan holda tanishtirilib, kafolat xat (majburiyatnoma)lari rasmiylashtirildi.

Shuningdek, Vazirlik tizimida qonuniylikni ta'minlash, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ayniqsa "Fuqarolar maktabgacha va maktab ta'limi organlari, tashkilotlari va muassasalaridan rozi bo'lishi kerak" tamoyilini so'zsiz amalga oshirishni davom ettirish maqsadida,

ishlab chiqilgan yangi ichki lokal hujjat “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi” loyihasi tasdiqlashga kiritish uchun tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishish jarayonida.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

Kadrlarni tanlash, tayinlash va joy-joyiga qo‘yish, nodavlat ta’lim muassasalari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirish, budjet intizomini mustahkamlash va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘rganishlar kabi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalarini o‘z ichiga olgan vazirlikning birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga ega eng ko‘p moyil bo‘lgan funktsiya va lavozimlar ro‘yxati, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi “yo‘l xaritasi” tasdiqlanib, 2023-yil 23-iyunda 03-01/5-2405-sonli xat bilan ijroga qaratildi.

Birlashgan xaritada, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari hamda tizim tashkilotlari va muassasalarining hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish to‘g‘risida 5 ta taklif etilgan vazifa va funktsiyalari bo‘yicha baholash natijalari nazarda tutilgan bo‘lib, tegishli mexanizmlar va hujjatlarni ishlab chiqib, qabul qilish tadbirlari belgilangan bandlarning ijrosi ta’minlandi.

Shuningdek, tizimda yuqori bo‘lgan qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun 30 ta tadbirni o‘z ichiga olgan dastur tasdiqlanib, ijrosi ta’minlandi va masofadan yoki “bir darcha” tamoyili asosida davlat xizmatlari joriy etilishi (kengaytirilishi) natijasida, 974 778 nafar bitiruvchiga (9- va 11-sinf) elektron shahodatnoma berildi (yangi xizmat), 75 193 nafar o‘quvchi maktabdan-maktabga ko‘chirildi (yangi xizmat), 54 772 nafar fuqaroga shahodatnoma dublikati berildi (2022-y. – 22 812), 1-sinfga o‘quvchilarni masofadan qabul qilish tizimi 1 160 ta maktabga tatbiq etildi (2022-y. – 823 ta).

Tizimda ko‘p uchrayotgan qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish hamda “inson omili”ni kamaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida bitim imzolashdagi korrupsion holatlarning oldini olish bo‘yicha oilaviy shakldagi davlat-xususiy sheriklik bitimlarining imzolanish jarayonini elektron tarzda amalga oshirish joriy etildi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan subsidiyalardan maqsadsiz foydalanish holatlarini oldini olish maqsadida tarbiyalanuvchilarni hisobga olishning raqamli (Face ID) tizimi joriy etildi va bu tizimdagi axborotni Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Maktabgacha ta’lim agentligi axborot dasturiga integratsiya qilinishi ta’minlandi.

Ma'lumot uchun, davlat tashkilotlarining 2023-yil uchun raqamli transformatsiya holati reyting natijalariga ko'ra vazirlik davlat boshqaruvi organlari orasida 77,51 ball bilan 11-o'rinda bo'lib, yashil hududdan joy olgan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish:

Manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillaridan vazirlik markaziy apparatining 170 nafar va hududiy boshqarmalarning 807 nafar xodimlari o'tgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha hududiy bo'linmalarining 4 nafar xodimlari bilan mehnat shartnomalari bekor qilinib, 41 nafari boshqa lavozimga tayinlandi, 9 ta holatda davlat xaridlari bekor qilindi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish:

Vazirlik markaziy apparatida kontragentlar bilan tuzilgan 25 ta va hududiy boshqarmalardagi 1004 ta shartnomalarga tegishli shartlar kiritilgan bo'lib, shartnomalarni bekor qilish bo'yicha 9 ta holat (davlat xaridi bo'yicha) mavjud.

Kontragentlarni tekshirish:

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha Vazirlik markaziy apparatida 25 ta va hududiy boshqarmalarda 1004 ta tekshiruv o'tkazilib, xulosalar rasmiylashtirilgan.

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli ishlatish bo'yicha o'tkazilgan 15 ta nazorat va monitoring tadbirlarida aniqlangan 46 106 holatda moliyaviy xato va kamchiliklar bo'yicha 5 nafar xodimga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlandi va 103 586,3 ming so'mlik budjet mablag'laridan samarasiz foydalanishning oldi olindi.

Ishga nomzodlarni tekshirish:

Vazirlik markaziy apparatida ishga qabul qilish bo'yicha 692 nafar, hududiy boshqarmalarda 1 506 nafar nomzodlar tekshirilib, vazirlikda 658 ta, hududlarda 1 340 ta ijobiy, shuningdek, vazirlikda 34 ta va hududlarda 166 ta salbiy xulosalar tuzilgan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya.

Vazirlik, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari xodimlari uchun korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, korrupsiya va uning oqibatlari, bu kabi jinoyatlarni oldini olish bo'yicha 18 ta banddan iborat targ'ibot va profilaktika tadbirlari rejasi 2023-yil 3-aprelda tasdiqlanib, ijrosi ta'minlandi.

Xususan, barcha darajadagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim, malaka ko'nikmalarini yanada oshirish maqsadida 14 ta hudud va tuman (shahar)larni qamrab olgan holda 4 468 nafar xodim iyun oyida umumiy, ichki nazorat tuzilmalari xodimlari esa maxsus dastur asosida o'qitildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarida foydalanish uchun 7 ta taqdimot materiallari hamda 4 ta qo'llanma joylarga yetkazildi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga mas'ul 178 nafar xodimning ish joyidan ajralmagan holda O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida "Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari" moduli bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarida malakasini oshirish tashkil etilib, xodimlarga sertifikat berildi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan 6 735 nafar maktab direktorlari va 193 472 ming nafar pedagog xodimlar malaka oshirish kurslarida "Boshqaruvda huquqiy masalalar" kompetensiyasining 2 soatlik mavzusi doirasida "Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish" mavzusida o'qitilgan bo'lib, bu ko'rsatkich umumiy maktab direktorlariga nisbatan 66,2 foizni, pedagog xodimlarga nisbatan esa 37 foizni tashkil qiladi.

Vazirlik va hududiy bo'linmalar xodimlari uchun 252 ta seminar va davra suhbatini tashkil etilib, 1 732 ta profilaktika tadbirlari o'tkazildi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" doirasida o'quvchilarda korrupsiyaga nisbatan mutlaqo muvofiqlik madaniyatini shakllantirish maqsadida 10 368 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida targ'ibot va seminar tadbirlari, "Ochiq eshiklar kuni", "Korrupsiyaga qarshi kurashish haftaligi", "Rasmlar tanlovi", "Korrupsiya yomon illat" sport o'yinlari o'tkazildi, "Biz korrupsiyaga qarshimiz" nomdagi 131 ta videorolik namoyish etildi, qator maqolalar e'lon qilindi.

Vazirning korrupsiyaga qarshi muvofiqlik munosabatini ko'rsatuvchi murojaatnomasi ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinib, tizimda korrupsiya qarshi samarali kurashish ishlarining ahvoli yuzasidan aholi o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazilgan anonim so'rovda ishtirok etgan 37 600 nafar fuqarodan 2 372 nafari (respondent) so'rovnoma to'ldirdi.

So'rov natijalarida olingan ma'lumotlar faoliyatning barcha sohalarida korrupsiyaning turli ko'rinishlariga muvofiqlik munosabatni shakllantirish, xodimlarda huquqiy ong va madaniyatni oshirish bo'yicha yanada faol ish olib borishni ko'rsatib, joylarga ko'rsatma berildi.

Xuddi shunday dekabr oyida o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan 21 400 nafar shaxsdan 6 085 nafar respondent (pedagog xodimlar) to'ldirgan so'rovnoma natijalari bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilmogda.

2022/2023-o'quv yilidan boshlab maktab darsliklarining ijara to'lovi to'liq Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplash hamda o'quvchilarga darsliklarni

bepul foydalanishga berish tizimi joriy qililib, ilg'or xorijiy tajribalar asosida darsliklar yangidan nashr etildi. Biroq, darsliklarni noqonuniy ravishda sotuvga chiqarilganligi bo'yicha ijtimoiy tarmoqlardagi materiallar dastlabki o'rganilib, 5 nafar mas'ul xodimga nisbatan chora ko'rildi.

Xodimlarning odob-axloq madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari haqida xabardor qilish maqsadida, telegram bot va ishonch telefonlari aks etgan "Biz korrupsiyaga qarshimiz" banneri 17 183 ta binoga joylashtirildi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar.

Korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun barcha turdagi aloqa kanallarining ("Ishonch telefoni", elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar) uzluksiz faoliyati nazoratga olindi. "Vazirga murojaat" portali tashkil etildi (4 180 ta murojaat kelib tushgan). Masalan, 2023-yilda "Ishonch telefon"lariga 73 591 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 6 763 tasi nazoratga olindi va qolgan 66 828 tasiga og'zaki tushuntirish berildi. Shundan korrupsiyaga oid 2 408 ta murojaat belgilangan tartibda ko'rib chiqilib, 1 786 ta tezkor ma'lumotlar o'rganildi va natijasi bo'yicha munosabat bildirildi.

Korrupsiyaga oid vazirlikda ko'rib chiqilgan 2 408 ta murojaatlarning 1 834 tasi "Ishonch telefoni", 182 tasi pochta orqali, 155 tasi vazirlikning elektron pochtasi, 88 tasi Prezident virtual qabulxonasi, 63 tasi vazirga murojaat portali orqali kelib tushgan bo'lsa, 86 tasi shaxsiy qabulda qabul qilingan.

Hududlardagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan jami 939 ta, shundan 479 ta hujjat, 460 ta ariza va shikoyatlar ko'rib chiqilgan bo'lib, mazkur murojaatlarning 334 tasi edo.ijro.uz., 51 tasi maxsus aloqa kanallari, 132 tasi ijtimoiy tarmoqlar va 445 tasi davlat organlari va tashkilotlari orqali kelib tushgan.

Murojaatlarning 6 tasi (Xorazm, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlari) bo'yicha xizmat tekshiruvini o'tkazilib, materiallar prokuratura idoralari yuborildi.

O'tgan 2021-2023-yillarda korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan 1 380 nafar xodimning hujjatlari qonunchilikdagi cheklovlar bo'yicha o'rganilmoqda. Jinoyatlarni kamaytirish maqsadida esa Vazirlik tizimida pora olish hamda pora berish xavflarini yuzaga kelish sabab va shart-sharoitlarini oldini olish maqsadida 9 ta tadbirni o'z ichiga olgan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga kiritildi.

Vazirlik va tizim xodimlarining yoki uning kontragentlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari bo'yicha 20 ta ommaviy axborot vositalari monitoring qililib, 9 ta

ommaviy axborot vositasida e'lon qilingan 59 ta axborot va ma'lumotlar o'rganildi va munosabat bildirildi.

VII. Monitoring va nazorat.

Vazirlik tomonidan 10 ta hududiy (*Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona, Navoiy, Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari*) boshqarmalari va 2 ta tizim (*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti*) tashkilotlarda 12 ta, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari tomonidan esa 99 ta korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy etilgan mexanizmlar (ichki lokal hujjatlar)ga rioya qilinishi, amalga oshirilayotgan ishlar va chora-tadbirlar, Davlat dasturlarining ijrosi tekshirilib, uslubiy yordam ko'rsatildi, tahliliy ma'lumotnoma tuzildi va faoliyatni tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Mazkur tadbirlar 2023-yil 3-aprelda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish rejasi (2023-yil 3-aprelda tasdiqlangan) asosida amalga oshirilgan.

Shuningdek, tizimda mansabi yuqori bo'lgan xodimning shaxsiy ishlarini (*ko'chadagi ishlarini bitirishi, farzandini ta'lim muassasasidan olib keltirish va h.k.*) amalga oshirishi uchun o'zidan pastroq lavozimda bo'lgan xodimga ko'rsatma berganligini monitoring qilish kalendar rejasi 2023-yil 3-aprelda tasdiqlanib, 17 ta hududiy va tarkibiy bo'linmalar kesimida, xususan, Jizzax viloyatining Jizzax shahar, Zafarobod, Arnasoy, Paxtakor tumanlarida, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahar, Yakkabog', Kitob, Muborak, Kasbi, Qarshi tumanlarida, Farg'ona viloyatining Qo'qon shahar, Andijon viloyatining Andijon shahar, Toshkent viloyatining Bekobod shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahar va Amudaryo tumani, Toshkent viloyatining Chirchiq shahar va Qibray tumanida monitoring o'tkazildi.

Tekshirish va monitoring jarayonida zimmasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha belgilangan vazifa va funksiyalarni bajarmasdan, maktabgacha va maktab ta'limi tizimini obro'sizlantirish va nufuziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan, shuningdek, Ish yuritish yo'riqnomasi va Ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilangan intizomiy jazo chorasi qo'llashga asos bo'luvchi xatti-harakatlarni sodir etgan Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazoratini amalga oshirish bo'yicha 2 nafar bosh mutaxassislarga hamda 8 nafar boshqa mas'ul rahbar xodimlarga nisbatan "hayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanilib, 81 ta material prokuratura idoralariga yuborildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

Tizimda o'tkazilgan 111 ta tekshirishlarda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi to'g'risida jami 157 ta qoidabuzarliklar aniqlandi.

Farg'ona viloyati Dang'ara tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi va tumandagi 4-, 20-, 53-, 58-DMTTlar faoliyati 2023-yil 21-22-fevral kunlari o'rganilib, aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha Dang'ara tumani 4-DMTT direktori E.Tadjiyeva, 20-DMTT direktori N.O'risheva, 53-DMTT direktori D.Qo'chqarova, 58-DMTT direktori I.Abduraxmonovalarga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

Shu bilan birga, "Davlat sherigi" bilan "MONTESSORI-TA'LIM" NTM rahbari X.Yuldasheva "Xususiy sherik" hamda Toshkent shahar hokimligi o'rtasida Shayxontohur tumani hokimining 2018-yil 26-martdagi 252-sonli qaroriga asosan "MONTESSORI-TA'LIM" NTMga Shayxontohur tumani, Beltepa mavzesi 20-uy, 316-maktab hududidan nodavlat ta'lim muassasasini qurish uchun ajratilgan 6000 kv.m yer maydonida 500 o'ringa mo'ljallangan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasini yangidan qurish yuzasidan 2018-yil 18-iyulda 0640/14-sonli uch tomonlama tuzilgan bitim shartlarini buzgan va monitoring ishlarini olib bormagan mas'ul shaxslar aniqlanib, ularga nisbatan qonuniy chora ko'rish uchun to'plangan hujjatlar Shayxontohur tumani prokuraturasiga yuborilgan.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish boshqarmasi boshlig'i A.Xakimov va mas'ul xodimlar o'z lavozim majburiyatlari hamda xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganligi aniqlanib, A.Xakimov va boshqarmaning mas'ul xodimlariga tegishli chora ko'rildi.

Yashnobod tumanidagi 559-sonli eksperimental davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati 2023-yil 24-25-mart kunlari o'rganilib, aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha to'plangan hujjatlar qonuniy qaror qabul qilish uchun Yashnobod tumani prokuraturasiga yuborilgan.

Yangihayot tumanidagi 122-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati 2023-yil 12-13-aprel kunlari o'rganilib, aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha 122-sonli DMTT direktori N.Mo'minova lavozimdan ozod etildi va to'plangan hujjatlar qonuniy qaror qabul qilish uchun Yangihayot tumani prokuraturasiga yuborildi.

Chilonzor tumanidagi 230-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati 2023-yil 4-8-may kunlari o'rganilib, aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha 230-sonli DMTT direktori Sh.Yusupova lavozimdan ozod etildi va to'plangan hujjatlar qonuniy qaror qabul qilish uchun Chilonzor tumani IIO va FMBga yuborildi.

Mirobod tumanidagi 440-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati 2023-yil 11-18-may kunlari o'rganilib, aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha to'plangan hujjatlar qonuniy qaror qabul qilish uchun Mirobod tumani prokuraturasiga yuborildi.

Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Andijon, Namangan, Buxoro viloyatlaridagi ayrim nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan tuzilgan bitimlardagi majburiyatlarning bajarilishi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati 2023-yil yanvar-may oylarida o'rganilib, aniqlangan qonunbuzilishi holatlari bo'yicha to'plangan hujjatlar qonuniy chora ko'rish uchun prokuratura organlariga yuborilgan.

Shuningdek, 670 ta DXSH asosida MTTlar tomonidan bir bolaning ma'lumotlari NMTTBATga kiritilib, uning fotosurati o'rniga boshqa bolaning fotosurati asosida davomati belgilanib kelinayotganligi holati bo'yicha, dalolatnomalar rasmiylashtirilib, qonunchilikda belgilangan tartibda 8 mlrd. so'mdan ortiqroq subsidiya to'lovlari to'xtatildi va ma'lumotlar prokuratura organlariga qonuniy chora ko'rish uchun yuborildi.

DXSH asosida 600 tadan ortiq, shu jumladan oilaviy MTTlar tomonidan o'rtadagi vositachilar yordamida kompyuterlarda virtual mobil qurilmani yaratish orqali haqiqatda MTTga kelmagan tarbiyalanuvchilar va xodimlarning davomatini soxtalashtirib NMTTBATga yuborishga harakatlar aniqlanib, MTTlarga ogohlantirish xatlari yuborildi, 6 mlrd. so'mlik subsidiya to'lovlari to'xtatildi, tegishli ma'lumotlar esa Ichki ishlar vazirligiga qonuniy chora ko'rish uchun yuborildi.

Tadbirkorlar uchun NMTTBATda davomat ma'lumotlarini qayta ko'rib chiqish va subsidiyalarni to'lab berish to'g'risida elektron arizani shakllantirish imkoniyati yaratilib, bu to'g'risida e'lon Maktabgacha ta'lim agentligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida joylashtirildi.

Bundan tashqari, barcha darajadagi (1 mln. 150 ming nafar) xodimlar bilan profilaktika tadbirlari o'tkazilib, egallab turgan lavozimi bo'yicha vazifa va funksiyalarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish, Davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilmaslik, bolalarning shaxsiy ma'lumotlarini sir tutilishi va korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik xususida, shu jumladan jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan Direktorlar kengashi a'zolari ham rasman ogohlantirilib, kafolat xati va majburiyatnoma rasmiylashtirildi.

Sohada yo'l qo'yilgan kamchiliklar va muammoli masalalar mas'ul xodimlar ishtirokida 2023-yil 22-sentabrdagi hay'at yig'ilishida tanqidiy muhokama qilinib, har bir rahbar bilan alohida-alohida Vazir huzurida korrupsiyaga qarshi kurashish

ishlari tanqidiy ko'rib chiqilib, tezkor ma'lumotlar asosida profilaktika o'tkazildi va tegishli ko'rsatma berildi.

Qarindoshlarning davlat tashkilotida birga xizmat qilishini hamda ilgari sodir etgan jinoyatlari sabab rahbarlik lavozimiga tayinlash mumkin emasligiga oid qonunchilikdagi cheklovlar monitoring qilinib, 29 nafar xodim bo'yicha munosabat bildirildi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazirlikning siyosati korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, oqibatlari, keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash orqali tizimda korrupsiya holatlariga barham berish maqsadida, davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlash, budjet qonunchiligiga rioya etilishini profilaktika qilish, monitoring va nazorat o'rnatish, shuningdek, davlat xaridlari jarayonida qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etish haqida tizim tashkilotlariga 2023-yil 21-iyulda 01-01/5-469-sonli ko'rsatma berilib, soha alohida nazoratga olindi.

IX. Xulosalar.

Vazirlik tizimida korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa huquqbuzarliklarning oldi olinishi, faoliyatning ochiqligiga erishilishi va zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas'uliyatining yanada ortishi, mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar faoliyati samaradorligi yangi mezonlar asosida baholanishi, xodimlarning kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odoq-axloqining yuksalib borishi, faoliyatda korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan natijalarga erishildi.

Bu natijalar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi e'lon qilgan Ochiqlik indeksida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 21 ta vazirlik orasida 72,5 ball bilan 6-o'rinda, barcha davlat organlari va tashkilotlari orasida esa 11-o'rinda joylashgan bo'lib, yashil hududdan o'rin olgan.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

Navbatdagi bosqichda, ya'ni 2024-yilda maktabgacha va maktab ta'limi sohasida normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash, sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirishni nazarda tutuvchi "Korrupsiyasiz soha" loyihasi amalga oshiriladi.

Vazirlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini yanada kuchaytirish, hujjatlar

va belgilangan tadbirlar ijrosini ta'minlash bo'yicha 30 ga yaqin chora-tadbirlar ko'riladi.

MELQO baholash tizimi asosida qo'shimcha ravishda yana 250 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida baholash tizimi, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning axborot tizimi davlat MTTlarda joriy etiladi. Bunda, ushbu axborot tizimida davlat MTTning pasporti ma'lumotlarini kiritish hamda shu asosda har bir MTTning elektron shtatlar jadvalini shakllantirish, yagona mavsumiy taomnomani elektron shaklda shakllantirish, kunlik oziq-ovqat sarfi hamda otanalar badali to'lovlarining elektron hisobini yuritish imkonini beruvchi modul yaratish, qog'ozbozlikni kamaytirish va raqamlashtirishni kengaytirish maqsadida Baholar tabelini yuritishni elektron shakliga o'tkazish va 4 ta yangi davlat xizmati joriy qilinadi.

Darsliklarning hisobini yuritish jarayonini raqamlashtirish maqsadida maxsus elektron platformani va o'qituvchilarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning yangi tartibi joriy etiladi.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarga rahbar va pedagog xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha rekruting elektron (<https://vacancy.piima.uz>) platforma takomillashtiriladi. "O'quvchilarni saralash va hujjatlarni onlayn qabul qilish (<https://ariza.piima.uz>)" arizalar qabuli elektron xizmati Yagona interaktiv davlat xizmatlari (<https://my.gov.uz>) portaliga integratsiya qilinadi.

**O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy
nazorat boshqarmasi**